

# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

№7

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025  
IYUL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™  
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic  
Resource  
Index  
ResearchBib

ISSN  
INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS  
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ  
БИБЛИОТЕКА  
LIBRARY.RU



UZBEKISTAN

РЭУ.РФ  
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА  
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr,  
62- sahifa, iyul, 2025-yil.

## Bosh muharrir:

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## Bosh muharrir o'rinbosari:

**Shakarov Zafar G'afforovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## Tahrir hay'ati:

**Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Botirali Roxataliyevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK  
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

|                                                                                                                                                                                                                  |    |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Yashil ish o'rinlari va ekologik ta'lim: o'zbekiston yoshlari uchun yangi imkoniyatlar .....                                                                                                                     | 12 |
| <b>Rashidov Saidislom, Zaripova Mardona</b>                                                                                                                                                                      |    |
| Soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash holatlarining informatsion assimetriyaga ta'siri .....                                                                                                                      | 16 |
| <b>Babanazarova Nilufar Xolmatovna</b>                                                                                                                                                                           |    |
| Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda budget mablag'laridan foydalanish mexanizmining o'rni va ahamiyati .....                                                                                                    | 23 |
| <b>Rustamova Gulmira Aliqulovna</b>                                                                                                                                                                              |    |
| Dasturiy mahsulotlar logistikasi .....                                                                                                                                                                           | 30 |
| <b>Uzaqov Ortik Shaymardanovich</b>                                                                                                                                                                              |    |
| Banklarda moliyaviy barqarorligini ta'minlashda moliyaviy natijalar ahamiyati .....                                                                                                                              | 35 |
| <b>Djalilov G'ayrat Qaxramanovich</b>                                                                                                                                                                            |    |
| Oliy ta'lim muassasalarini "yashil universitet" tizimiga transformatsiya qilish istiqbollari (buxoro davlat texnika universiteti va malayziyaning oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik misolida) ..... | 39 |
| <b>Rahmatov Shuxrat Axatovich</b>                                                                                                                                                                                |    |
| Davlat qarzi siyosati samaradorligini oshirish orqali makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash .....                                                                                                           | 43 |
| <b>Sayfutdinov Xasanboy Dilshodovich</b>                                                                                                                                                                         |    |
| Оптимизация бизнес-процессов и модернизация занятости в условиях цифровизации .....                                                                                                                              | 47 |
| <b>Явкачев Шохзод Зайниддин углы</b>                                                                                                                                                                             |    |
| Strategik rivojlanish sharoitida investitsion jozibadorlikning o'rni .....                                                                                                                                       | 54 |
| <b>Otaboyev Axmed Maxsudbek o'g'li</b>                                                                                                                                                                           |    |



# STRATEGIK RIVOJLANISH SHAROITIDA INVESTITSION JOZIBADORLIKNING O'RNI

**Otaboyev Axmed Maxsudbek o'g'li**

TDIU mustaqil izlanuvchisi, PhD

**Annotatsiya:** Maqolada strategik rivojlanish sharoitida investitsion jozibadorlikning o'rni tahlil qilinadi. Muallif investitsion oqimlarning tarkibi, ularning texnologik va mintaqaviy taqsimoti hamda O'zbekiston iqtisodiyotidagi barqaror o'sishga ta'sirini tahliliy ko'rinishda ochib beradi. O'zbekiston Respublikasining 2020–2024-yillar oralig'idagi asosiy kapitalga investitsiyalar dinamikasi, ularning manbalari va xorijiy investorlar geografiyasi asosida chuqur tahlil olib boriladi. Maqolada strategik investitsiyalarning barqaror iqtisodiy o'sish, innovatsion raqobatbardoshlik va infratuzilmani rivojlantirishdagi roli asosli dalillar bilan yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** investitsion jozibadorlik, strategik rivojlanish, xorijiy investitsiyalar, asosiy kapital, iqtisodiy o'sish, O'zbekiston, texnologik tarkib, investitsiya manbalari, mintaqaviy tahlil.

**Abstract:** This article explores the role of investment attractiveness in the context of strategic development. The author provides an analytical examination of investment flows, their technological and regional distribution, and their impact on Uzbekistan's sustainable economic growth. Using data from 2020–2024, the study analyzes the dynamics of capital investments, sources of financing, and the geographical structure of foreign investors. The paper highlights the significance of strategic investments in fostering innovation-driven competitiveness and infrastructure modernization.

**Keywords:** investment attractiveness, strategic development, foreign investment, fixed capital, economic growth, Uzbekistan, technological composition, investment sources, regional analysis.

**Аннотация:** В статье рассматривается роль инвестиционной привлекательности в условиях стратегического развития. Автор проводит аналитический обзор структуры инвестиционных потоков, их технологического и регионального распределения, а также влияния на устойчивый экономический рост Узбекистана. Основываясь на данных за 2020–2024 годы, анализируются динамика инвестиций в основной капитал, источники финансирования и география иностранных инвесторов. Особое внимание уделено стратегическим инвестициям как фактору инновационной конкурентоспособности и инфраструктурного развития.

**Ключевые слова:** инвестиционная привлекательность, стратегическое развитие, иностранные инвестиции, основной капитал, экономический рост, Узбекистан, технологическая структура, источники инвестиций, региональный анализ.

## KIRISH

Yangi O'zbekistondagi islohotlar samarasi xalqaro reytinglarda ham o'zining munosib aksini topmoqda. "Iqtisodiy erkinlik indeksi"dagi o'rnimiz so'nggi besh yilda 48 pog'onaga yuqori ko'tarildi. Garvardning "Iqtisodiyot murakkabligi indeksi"dagi o'rnimiz 28 pog'onaga yaxshilandi. O'tgan oyda nufuzli "S&P" agentligi O'zbekistonning suveren reytingi prognozini "barqaror"dan "ijobiy"ga oshirdi.

Bugun dunyo iqtisodiyoti yangi davr va o'zgarishlar ostonasida turganini barchamiz yaxshi tushunamiz. Bu esa barqaror rivojlanish yo'lidan borayotgan davlatlarni quyidagi to'rtta yo'nalishda hamkorlikda ishlashga undamoqda.

Birinchidan, "yashil" iqtisodiyot modeliga o'tish. Biz iqtisodiyotimizni barqaror energiya resurslari bilan ta'minlash uchun aynan "yashil" energetikani rivojlantirishga qattiq bel bog'laganmiz. O'tgan qisqa davrda bu sohaga qariyb 6 milliard dollar to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiya kirib keldi. Elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi 59 milliarddan 82 milliard kilovatt-soatga yetdi. Keyingi besh yilda bu ko'rsatkich 120 milliard kilovatt-soatdan oshib, "yashil" energiya ulushi 54 foizga yetadi. Shuningdek, elektr tarmoqlarini yangilashga ham 4 milliard dollar jalb qilamiz. Bu borada joriy yilda Samarqandda, kelgusi yildan yana 8 ta hududda elektr tarmoqlarini xususiy sheriklikka beramiz. Bundan tashqari, ilk bor "yashil" sertifikat va uglerod birliklari savdosini boshladik. Shu yil global uglerod bozorlariga qo'shilib, "Yashil O'zbekiston" iqlim investitsiyalari platformasini yaratamiz.

Ikkinchidan, raqamli texnologiya va sun'iy intellekt iqtisodiyotning "drayveri"ga aylanmoqda. Mamlakatimizda shu yilning o'zida IT eksporti 1 milliard dollarga yetadi. 2030-yilga borib, bu ko'rsatkichni 5 karra oshirish uchun salohiyatimiz ham, imkoniyatimiz ham yetarli. Bu ishlarimiz xalqaro darajada e'tirof etilib, Sun'iy intellektga tayyorlik bo'yicha xalqaro indeksda bir yilda 17 pog'onaga ko'tarildik. Kelgusi yil "Bulutli texnologiyalar" milliy platformasi ishga tushadi. Yaqin besh yilda xususiy investorlar bilan birga quvvati 500 megavatt



ziyod 20 ta “data markaz” barpo etamiz. Shuningdek, boy tariximiz, azaliy qadriyatlarimiz hamda yangi kreativ g’oyalarni mujassam etgan sun’iy intellektning milliy modelini ishlab chiqamiz. Bu tizim samaradorligini ta’minlash uchun “Bir million sun’iy intellekt yetakchilari” loyihasini boshladik. Ishonchim komil, sizlar bilan birgalikda O‘zbekistonni nufuzli IT va Fintech xabiga aylantiramiz.

Uchinchidan, bugungi sharoitda moliyaviy tizim va texnologiyalar keskin o‘zgarmoqda. Biz yaqinda Xalqaro valyuta jamg‘armasi va Jahon banki bilan birga O‘zbekiston moliya sektorini ilk bor kompleks baholashdan o‘tkazdik. Ular bank, moliya, sug‘urta, kapital bozoridagi islohotlarimizni to‘liq qo‘llab-quvvatladi. Bu sohalarni keyingi rivojlanish bosqichiga olib chiqish maqsadida O‘zbekistonda Moliyaviy barqarorlik kengashi tashkil etiladi, Markaziy bankda kiberxavfsizlik va moliyaviy texnologiyalar platformalari ishga tushiriladi. Sug‘urta tizimida ham katta islohotlarni boshladik. Milliy qayta sug‘urtalash kompaniyasi va Global qayta sug‘urtalash raqamli platformasi tashkil etildi. Startaplar uchun muqobil moliyaviy instrument – venchurlar bizda tez rivojlanib boryapti. Misol uchun, o‘tgan yili 2 ta startap kompaniyamizning qiymati ilk bor 1 milliard dollardan oshdi. Bunday kompaniyalarni albatta ko‘paytiramiz. Shu bois “Muqobil investitsiya jamg‘armalari to‘g‘risida”gi qonun loyihasi ishlab chiqildi. Kelgusi besh yilda venchur va boshqa muqobil sarmoyalar hajmini 1 milliard dollarga olib chiqamiz.

Yana bir yo‘nalish. “To‘rtinchi sanoat inqilobi” “texnologik minerallar”ga talabni bir necha karra ko‘paytirmoqda. O‘zbekistonda volfram, molibden, magniy, litiy, grafit, vanadiy, titan va boshqa minerallarning katta zaxirasi aniqlangan. Umuman, yer osti boyliklarimizning salohiyati 3 trillion dollarga baholanmoqda. Mintaqamizning minerallardan yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish “xabi”ga aylanishi uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Bu borada Toshkent va Samarqand viloyatlarida “Kelajak metallari texnoparki”ni bunyod etmoqdamiz. Shu o‘rinda bir tashabbusni ilgari surmoqchiman: bu sohada geologiya-qidiruv ishlaridan boshlab, tayyor mahsulot zanjirini yo‘lga qo‘ygan investorlarga o‘n yil davomida renta solig‘i qaytarib beriladi. Ishonchim komil, sizlar bilan uzoq muddatli samarali aloqalarimiz aytib o‘tilgan barcha yo‘nalishlarda o‘zaro manfaatli biznes hamkorlikka aylanadi.<sup>1</sup>

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Strategik rivojlanish – bu tashkilot yoki mamlakat miqyosida uzoq muddatli maqsadlarni aniqlash, tashqi va ichki muhitni tahlil qilish hamda mavjud resurslarni ushbu maqsadlarga erishish yo‘lida muvofiqlashtirishni o‘z ichiga oluvchi kompleks jarayondir. Ushbu jarayon aniq shakllangan istiqbol – ya’ni vizion, missiya va asosiy qadriyatlarni belgilashdan boshlanadi.<sup>2</sup>

Strategik rivojlanish doirasida ehtiyojlar tahlili (needs assessment), ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha maqsadli rejalashtirish, shuningdek, aniqlashtirilgan strategik maqsadlar va ularni amalga oshirish muddatlarini belgilovchi aniq harakatlar dasturi ishlab chiqiladi. Ushbu jarayon doimiy ravishda takrorlanuvchi (iterativ) xarakterga ega bo‘lib, rejalarning bajarilishini monitoring qilish, natijalarni baholash va zarur bo‘lsa, o‘zgaruvchan tashqi-iqtisodiy sharoitlarga mos holda moslashtirishni talab qiladi.

Strategik investitsiyalar — bu kompaniyaning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini amalga oshirishga xizmat qiluvchi, uning raqobatbardoshligini mustahkamlovchi hamda bozordagi ulushini kengaytirishga yo‘naltilgan kapital qo‘yilmalardir. Bunday investitsiyalar, odatda, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, resurs bazasini mustahkamlash yoki yangi bozor segmentlariga kirib borish bilan bog‘liq bo‘ladi.

Strategik investitsiyalarning iqtisodiy mohiyati shundan iboratki, ular qisqa muddatli daromad olishni emas, balki uzoq muddatli barqaror o‘sish va ustuvorlikni ta’minlashni ko‘zlaydi. Bu turdagi investitsiyalar kompaniyaning tashqi muhitdagi o‘zgarishlarga moslashuvchanligini oshiradi, innovatsion transformatsiyani tezlashtiradi va korporativ qiymatning ortishiga xizmat qiladi.

Strategik investitsiyalar mamlakatning uzoq muddatli barqarorligini ta’minlashda, uning bozor pozitsiyasini mustahkamlashda va innovatsion raqobatbardosh ustunliklarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Ular oddiy moliyaviy rentabellikni emas, balki kompaniyaning kompleks rivojlanishini ko‘zlovchi ko‘p qirrali vosita sifatida qaraladi. Yaxshi rejalashtirilgan strategik investitsiyalar bir qator muhim ustunliklarni taqdim etadi.

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning to‘rtinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumidagi nutqi, 10.06.2025. <https://president.uz/oz/lists/view/8203>

2 Scott O’Reilly, Strategy Development: Fundamental Concepts Explained, February 6, 2025. <https://www.spiderstrategies.com/blog/strategy-development/#:~:text=What%20is%20Strategy%20Development?,adapt%20to%20changing%20competitive%20landscapes>.

**1-jadval: Strategik investitsiyalar orqali erishiladigan ustunliklar**

| Strategik ustunlik                | Tahliliy izoh                                                                                                                                                                     |
|-----------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Raqobatbardoshlik ustunligi       | Innovatsion texnologiyalar va ilg'or startaplarga sarmoya kiritish orqali bozordagi o'zgarishlarga tez moslashish va mijozlarga noyob qiymat taklif qilish imkoniyati yaratiladi. |
| Biznes sinergiyasining kuchayishi | Investitsiyalarni kompaniyaning asosiy faoliyati bilan uyg'unlashtirish sinergiyani kuchaytiradi va strategik barqarorlikni ta'minlaydi.                                          |
| Brend qiymatining oshishi         | Ijroiy imijga ega loyihalarga investitsiya kiritish kompaniya obro'sini oshirib, ishonch va bozor e'tiborini kuchaytiradi.                                                        |
| Barqaror o'sish                   | Diversifikatsiya orqali kompaniya bir daromad manbaiga bog'liqlikdan xalos bo'ladi va uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi.                                          |

Zamonaviy tadqiqotlarda investitsion jozibadorlikni baholashga doir yondashuvlar tarmoqlar kesimida keng tahlil etilmoqda. Jumladan, I.P. Dovbiy<sup>3</sup>, Yu.V. Sevryugin<sup>4</sup>, V.A. Teplitskiy<sup>5</sup>, O.V. Titova<sup>6</sup> hamda E.A. Fedorov<sup>7</sup> kabi tadqiqotchilar o'z ilmiy ishlarida turli iqtisodiy tarmoqlardagi korxonalar investitsion jozibadorligini baholashda nazariy va amaliy jihatlarini yoritib berganlar. Ularning tadqiqotlarida iqtisodiy tahlil, risklar bahosi, moliyaviy ko'rsatkichlar va sohaviy xususiyatlarga asoslangan yondashuvlar asosiy o'rinni egallaydi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot strategik rivojlanish sharoitida investitsion jozibadorlikning o'rnini baholashga qaratilgan bo'lib, unda kompleks, tizimli va statistik yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida ilmiy-nazariy asoslar tahlili, empirik tahlil va rasmiy statistik ma'lumotlardan foydalanish, deskriptiv (tasviri) va solishtirma tahlil usullari, kompleks indikatorlar tizimidan foydalanish, makroiqtisodiy va institutsional omillar tahlili, mintaqaviy tahlil va hududiy segmentatsiya, mahsuldorlikka qaratilgan natijaviy yondashuvlar qo'llanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasida oxirgi besh yillikda asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmining barqaror va sezilarli o'sishi kuzatildi. 2020–2024-yillar davomida investitsiyalar hajmi qariyb 2,3 barobar oshdi. Ushbu tendensiya mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy siyosatdagi tub o'zgarishlar, investitsiya muhitini takomillashtirish, normativ-huquqiy bazani modernizatsiya qilish hamda investorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha amalga oshirilgan tizimli sa'y-harakatlar natijasi sifatida namoyon bo'ldi.

Agar raqamlarga murojaat qilsak, 2020-yilda asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 210,2 trillion so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yil yakunida bu ko'rsatkich 493,7 trillion so'mga yetdi. Bu esa, nafaqat miqdoriy, balki sifat jihatidan ham investitsiya oqimining kengayganidan dalolat beradi.

Investitsiyalar o'sish sur'atlari ham yildan-yilga mustahkamlanib bordi. Xususan:

- 2021-yilda o'sish sur'ati 102,9% ni tashkil etdi,
- 2022-yilda o'sish 107,8% atrofida bo'ldi,

3 I.P. Dovbiy, "Methodological aspects of a multi-level assessment of the investment attractiveness of companies in the metallurgical complex", Bulletin of Chelyabinsk State University, no. 14 (396), pp. 33–40, 2016.

4 Yu.V. Sevryugin, "Assessment of the investment attractiveness of an industrial enterprise," PhD thesis abstract. Retrieved from: [http://elibrary.udsu.ru/xmlui/bitstream/handle/123456789/1836/04\\_17\\_013.pdf?sequence=1](http://elibrary.udsu.ru/xmlui/bitstream/handle/123456789/1836/04_17_013.pdf?sequence=1)

5 V.A. Teplitskiy, A.V. Koryakina, "Investment attractiveness in the context of the fishing industry", Socio-economic phenomena and processes, vol. 12, no. 4, pp. 56–60, 2017.

6 O.V. Titova, A.I. Guseynova, "Comprehensive assessment of the investment attractiveness of the construction company", Collection: Youth and the XXI Century – 2018, in 5 volumes, pp. 247–251, 2018 [Materials of the VIII International Youth Scientific Conference].

7 E.A. Fedorova, I.V. Esipenko, "Development of methods for assessing the investment attractiveness of the company on the example of the electricity sector", Economic analysis: theory and practice, no. 7, pp. 7–13, 2015.



- 2023-yilda esa 114,2% ga yetdi,
- 2024-yilda o'sish sur'ati 127,6% darajasiga chiqdi.<sup>8</sup>

Bu dinamik ko'rsatkichlar O'zbekiston iqtisodiy siyosatining investitsion yo'naltirilganligini va milliy iqtisodiyotda kapital qo'yilmalarni jalb qilish bo'yicha islohotlarning amaliy natija berayotganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, 2020–2024-yillar oralig'ida investitsiya hajmining bunday sezilarli oshishi respublika iqtisodiyotining diversifikatsiyasi, zamonaviy infratuzilmani rivojlantirish, ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish va ijtimoiy sohalarga kapital qo'yilmalarni ko'paytirish uchun mustahkam poydevor yaratdi.

2024-yilda O'zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga investitsiyalarning moliyalashtirilishi manbalari tarkibiy jihatdan xilma-xil bo'lib, jalb qilingan va o'z mablag'lari o'rtasidagi taqsimot orqali shakllandi.

Umumiy o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 493,7 trillion so'mni tashkil etib, bu miqdorning 75,9 foizi yoki 374,7 trillion so'm (29,63 milliard AQSH dollari) jalb qilingan mablag'lar hissasiga to'g'ri keldi. Ushbu mablag'larning tarkibi quyidagicha shakllandi:

Ta'minlanmagan xorijiy investitsiyalar va kreditlar — 159,6 trillion so'm (12,62 milliard AQSH dollari);

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar — 150,5 trillion so'm (11,90 milliard AQSH dollari);

Respublika tomonidan kafolatlangan xorijiy kreditlar — 23,6 trillion so'm (1,87 milliard AQSH dollari).

Shu bilan birga, investitsiyalarning 24,1 foizi yoki 119,0 trillion so'm (9,40 milliard AQSH dollari) o'z mablag'lari hisobiga amalga oshirildi. Ular quyidagicha taqsimlandi:

Korporativ fondlar — 87,0 trillion so'm (6,88 milliard AQSH dollari);

Uy xo'jaliklari mablag'lari — 32,0 trillion so'm (2,53 milliard AQSH dollari).<sup>9</sup>

**2-jadval: 2024-yilda O'zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari va ularning tarkibiy tuzilishi**

| Moliyalashtirish manbasi                               | Hajmi (trln so'm) | Hajmi (mlrd AQSH dollari) | Ulushi (%) |
|--------------------------------------------------------|-------------------|---------------------------|------------|
| Jalb qilingan mablag'lar (jami)                        | 374,7             | 29,63                     | 75,9       |
| - Ta'minlanmagan xorijiy investitsiyalar va kreditlar  | 159,6             | 12,62                     | 32,3       |
| - To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar           | 150,5             | 11,90                     | 30,5       |
| - Respublika tomonidan kafolatlangan xorijiy kreditlar | 23,6              | 1,87                      | 4,8        |
| O'z mablag'lari (jami)                                 | 119,0             | 9,40                      | 24,1       |
| - Korporativ fondlar                                   | 87,0              | 6,88                      | 17,6       |
| - Uy xo'jaliklari mablag'lari                          | 32,0              | 2,53                      | 6,5        |
| Jami                                                   | 493,7             | 39,03                     | 100        |

\*Stat.uz sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

Moliyalashtirish manbalari tahlili shuni ko'rsatadiki, investitsiyalarning katta qismi — taxminan 333,8 trillion so'm (26,39 milliard AQSH dollari) — bevosita xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobidan moliyalashtirilgan. Bu holat O'zbekiston bozorining xalqaro investorlar uchun jozibadorligini oshirayotganidan va mamlakatda investitsion muhitning izchil yaxshilanayotganidan dalolat beradi.

**3-jadval: 2020–2024 yillarda O'zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga jalb qilingan xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmi, o'sish sur'atlari va AQSH dollari ekvivalenti**

| Yil  | Investitsiyalar hajmi (trln so'm) | O'sish sur'ati (%) | Ekvivalent (mlrd AQSH dollari) |
|------|-----------------------------------|--------------------|--------------------------------|
| 2020 | 89,8                              | 98,9               | 8,90                           |
| 2021 | 101,4                             | 102,1              | 9,55                           |
| 2022 | 113,9                             | 100,5              | 10,31                          |
| 2023 | 201,7                             | 163,8              | 17,18                          |
| 2024 | 333,8                             | 152,1              | 26,39                          |

\*Stat.uz sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

8 <https://invexi.org/press/investments-in-fixed-capital-of-the-republic-of-uzbekistan-in-2024/#:~:text=In%202024%2C%20the%20Republic%20of%20rate%20of%2012%2C651.54%20UZS%2FUSD>.

9 <https://invexi.org/press/investments-in-fixed-capital-of-the-republic-of-uzbekistan-in-2024/#:~:text=In%202024%2C%20the%20Republic%20of%20rate%20of%2012%2C651.54%20UZS%2FUSD>.

2023-yilda xorijiy investitsiyalar hajmi oldingi yilga nisbatan 63,8% o'sdi va 17,18 milliard AQSH dollarini tashkil etdi. 2024-yilda o'sish davom etdi va xorijiy investitsiyalar hajmi 26,39 milliard AQSH dollariga yetdi, bu esa O'zbekiston investitsiya jozibadorligining oshib borayotganini ko'rsatadi. Har bir yildagi AQSH dollari ekvivalenti tegishli yilning o'rtacha ayirboshlash kursi asosida hisoblab chiqilgan.

O'zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi iqtisodiyotning zamonaviylashtirilishi va infratuzilmaning rivojlanishiga qaratilgan strategik yo'nalishlarni aks ettiradi.

Texnologik tarkib quyidagicha shakllangan:

Mashina, asbob-uskunalar va inventar uchun yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 4 trillion so'mni (18,29 milliard AQSH dollari) tashkil etdi. Bu umumiy investitsiyalarning 46,9% ulushiga teng bo'lib, ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish va sanoatni texnik qayta jihozlashga ustuvor e'tibor qaratilayotganidan dalolat beradi.

Qurilish va montaj ishlari uchun 8 trillion so'm (16,82 milliard AQSH dollari) mablag' sarflandi. Ularning umumiy investitsiyalardagi ulushi 43,1% bo'lib, bu infratuzilma obyektlarini rivojlantirish va yangi loyihalarni amalga oshirish jarayonlarining faolligini ko'rsatadi.

Boshqa xarajatlar (tayyorgarlik ishlari, o'qitish, konsalting xizmatlari va shu kabilar) uchun 5 trillion so'm (3,91 milliard AQSH dollari) ajratildi, bu esa umumiy investitsiyalar hajmining 10,0% ni tashkil etdi.

#### 4-jadval: 2024-yilda O'zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi

| Yo'nalish                            | Hajmi (trln so'm) | Hajmi (mlrd AQSH dollari) | Ulushi (%) |
|--------------------------------------|-------------------|---------------------------|------------|
| Mashina, asbob-uskunalar va inventar | 4                 | 18,29                     | 46,9       |
| Qurilish va montaj ishlari           | 8                 | 16,82                     | 43,1       |
| Boshqa xarajatlar                    | 5                 | 3,91                      | 10,0       |
| Jami                                 | 17                | 39,03                     | 100        |

\*Stat.uz sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

Investitsiyalarning qariyb yarmi ishlab chiqarish va texnologik modernizatsiyaga yo'naltirilgani iqtisodiy o'sishning sifat jihatini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Qurilish va montaj ishlariga qaratilgan yirik mablag'lar mamlakat infratuzilmasining kengayishiga asos bo'lmoqda. Boshqa xarajatlar tarkibidagi tayyorgarlik va o'qitish xarajatlari kadrlar salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan muhim investitsiyaviy yo'nalish hisoblanadi.

2024-yilda O'zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalarning reproduktiv tarkibi iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga qaratilgan strategiyani aks ettiradi.

Investitsiyalarning asosiy yo'nalishlari quyidagicha shakllandi:

Yangi qurilish uchun ajratilgan mablag'lar 0 trillion so'mni (24,43 milliard AQSH dollari) tashkil etdi va umumiy investitsiyalarning 62,6% ulushiga ega bo'ldi. Asosiy yo'nalishlar sifatida yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish hamda transport va energetika infratuzilmasini rivojlantirish ko'zda tutilgan.

Rekonstruksiya va modernizatsiya ishlari uchun 1 trillion so'm (9,10 milliard AQSH dollari) yo'naltirildi, bu umumiy hajmning 23,3% ini tashkil etdi. Bu investitsiyalarning katta qismi sanoat korxonalarini texnik va texnologik modernizatsiya qilishga qaratilgan.

Boshqa yo'nalishlar uchun 6 trillion so'm (5,50 milliard AQSH dollari) ajratildi, bu esa umumiy investitsiyalarning 14,1% ini tashkil etdi. Ular ichiga turli tayyorgarlik ishlari, kichik obyektlarning qurilishi va boshqa yordamchi loyihalar kiradi.

#### 5-jadval: 2024-yilda O'zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga investitsiyalarning reproduktiv tarkibi

| Yo'nalish                        | Hajmi (trln so'm) | Hajmi (mlrd AQSH dollari) | Ulushi (%) |
|----------------------------------|-------------------|---------------------------|------------|
| Yangi qurilish                   | 0                 | 24,43                     | 62,6       |
| Rekonstruksiya va modernizatsiya | 1                 | 9,10                      | 23,3       |
| Boshqa yo'nalishlar              | 6                 | 5,50                      | 14,1       |
| Jami                             | 7                 | 39,03                     | 100        |

\*Stat.uz sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

Yangi qurilishga ajratilgan mablag'lar transport, energetika va ishlab chiqarish sohalarining kengayishiga



xizmat qilmoqda. Rekonstruksiya va modernizatsiya investitsiyalari esa sanoat korxonalarining zamonaviylashtirilishini jadallashtirishga qaratilgan. Boshqa yo'nalishlar iqtisodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlovchi yordamchi loyihalarni moliyalashtirishni ta'minlamoqda.

2024-yilda asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar O'zbekiston hududlari bo'yicha notekis taqsimlangan bo'lib, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish darajalariga qarab mintaqalar o'rtasida farq qilgan.

Eng yirik investitsiya hajmlari quyidagi hududlarda qayd etildi:

Toshkent shahri — 40,2 trillion so'm (3,18 milliard AQSH dollari);

Samarqand viloyati — 30,5 trillion so'm (2,41 milliard AQSH dollari);

Farg'ona viloyati — 18,1 trillion so'm (1,43 milliard AQSH dollari).<sup>10</sup>

Shuningdek, xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirishda Namangan, Buxoro va Andijon viloyatlari yuqori faollik ko'rsatdi. Bu hududlarda xorijiy kapital ishtirokida yirik sanoat va infratuzilma loyihalari amalga oshirilmoqda.

#### 6-jadval: 2024-yilda asosiy kapitalga investitsiyalarning mintaqaviy taqsimoti

| Hudud              | Investitsiyalar hajmi (trln so'm) | Investitsiyalar hajmi (mlrd AQSH dollari) |
|--------------------|-----------------------------------|-------------------------------------------|
| Toshkent shahri    | 40,2                              | 3,18                                      |
| Samarqand viloyati | 30,5                              | 2,41                                      |
| Farg'ona viloyati  | 18,1                              | 1,43                                      |

\*Stat.uz sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

Toshkent shahri va Samarqand viloyati investitsiyalar hajmi bo'yicha yetakchilik qilmoqda, bu hududlarning iqtisodiy va infratuzilmaviy salohiyatining yuqoriligidan dalolat beradi. Xorijiy investitsiyalarning ishlab chiqarish va energetika sohasiga qaratilgani O'zbekistonning sanoat bazasini modernizatsiya qilish va energiya infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan strategiyasini tasdiqlaydi. Konchilik sohasidagi investitsiyalar tabiiy resurslardan samarali foydalanishni kuchaytirish uchun muhim asos yaratmoqda.

2024-yilda O'zbekiston Respublikasiga jalb qilingan xorijiy investitsiyalarning asosiy qismini yetakchi mamlakatlar hissasi tashkil etdi. Xorijiy kapital oqimining geografik diversifikatsiyasi mamlakatning xalqaro iqtisodiy aloqalarini kengaytirayotganidan dalolat beradi.

#### 7-jadval: 2024-yilda O'zbekiston Respublikasiga xorijiy investitsiyalar kiritgan yetakchi davlatlar

| Davlat                      | Investitsiyalar hajmi (trln so'm) | Investitsiyalar hajmi (mlrd AQSH dollari) | Ulushi (%) |
|-----------------------------|-----------------------------------|-------------------------------------------|------------|
| Xitoy                       | 92,9                              | 7,34                                      | 27,9       |
| Rossiya                     | 44,1                              | 3,49                                      | 13,2       |
| Turkiya                     | 22,7                              | 1,79                                      | 6,8        |
| Germaniya                   | 17,4                              | 1,37                                      | 5,2        |
| Saudiya Arabistoni          | 16,7                              | 1,32                                      | 5,0        |
| Niderlandiya                | 13,4                              | 1,06                                      | 4,0        |
| Birlashgan Arab Amirliklari | 13,0                              | 1,03                                      | 3,9        |
| Birlashgan Qirollik         | 12,4                              | 0,98                                      | 3,7        |

\*Stat.uz sayti ma'lumotlari asosida Stat.uz sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

\*Izoh: Investitsiyalar hajmi o'rtacha yil davomida amal qilgan kurslar asosida hisoblangan

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) xalqaro kapital harakatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishida katta ahamiyatga ega. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yuqori qo'shilgan qiymatga ega raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, korxonalarni zamonaviy texnologiyalar bilan yangilash hamda yangi ish o'rinlarini yaratishda muhim omil hisoblanadi.

10 <https://invexi.org/press/investments-in-fixed-capital-of-the-republic-of-uzbekistan-in-2024/#:~:text=In%202024%2C%20the%20Republic%20of%20rate%20of%2012%2C651.54%20UZS%2FUSD>.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasida strategik rivojlanish jarayonida investitsion jozibadorlikning o'sib borishi iqtisodiyotning barqaror transformatsiyasida muhim omilga aylangan. So'nggi besh yillikda asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalarning hajmi va tarkibiy sifati sezilarli darajada yaxshilandi. Investitsiyalarning texnologik va reproduktiv tarkibida sanoatni modernizatsiya qilish, infratuzilmani rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni jalb etishga yo'naltirilgan yondashuv ustuvorlik qilmoqda.

Jadval va statistik tahlillar asosida aniqlanishicha, O'zbekiston iqtisodiyotiga jalb qilinayotgan xorijiy investitsiyalar hajmi 2020-yildan 2024-yilgacha qariyb uch barobarga oshgan. Bu holat mamlakatda olib borilayotgan izchil islohotlar, huquqiy va institutsional muhitni takomillashtirish, shuningdek, xalqaro investorlar uchun yaratilayotgan qulay shart-sharoitlarning natijasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Investitsiya oqimining mintaqaviy diversifikatsiyasi va yetakchi davlatlar bilan aloqalarning kengayishi mamlakatning global kapital bozorlaridagi o'rnini mustahkamlamoqda.

Investitsiyalar manbalarining xilma-xilligi, xususan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy sarmoyalar, ta'minlanmagan kreditlar va o'z mablag'lar hissasining ortib borishi O'zbekiston iqtisodiyotida ko'p manbali investitsiyaviy moliyalashtirish modelining shakllanayotganini anglatadi. Bu esa investitsion xavfsizlikni ta'minlash, iqtisodiy turg'unlikka bardoshlilik va moliyaviy barqarorlikni kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

### Takliflar:

Hududiy investitsion reyting tizimini joriy etish. Har bir viloyat va shahar kesimida investitsion jozibadorlikni baholovchi reyting tizimini ishlab chiqish mintaqalar o'rtasida sog'lom raqobatni rag'batlantiradi va investorlar uchun maqsadli qaror qabul qilishda yo'l-yo'riq beradi.

Texnologik modernizatsiyani qo'llab-quvvatlovchi sarmoya siyosati. Investitsiyalarning katta qismini yuqori qo'shilgan qiymatga ega texnologik jihozlarga, innovatsion uskunalarga va raqamli infratuzilmaga yo'naltirish bo'yicha soliq imtiyozlari va grant dasturlari kengaytirilishi zarur.

Raqamli axborot tizimi orqali investorlar uchun ochiq ma'lumot platformasini yaratish. Investitsiya loyihalari, qonunchilik, infratuzilma xaritalari va iqtisodiy statistikasi qamrab oluvchi onlayn platforma investorlar uchun shaffoflikni oshiradi va qaror qabul qilish jarayonini yengillashtiradi.

Xorijiy investorlar uchun huquqiy kafolatlarni mustahkamlash. Xalqaro standartlarga mos holda investorlar bilan tuzilgan shartnomalarni himoya qiluvchi arbitraj mexanizmlari, muqobil nizolarni hal etish vositalari va kafolat jamg'armalari faoliyatini takomillashtirish lozim.

"Yashil" investitsiyalarni moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlarini joriy etish. Iqlimga moslashtirilgan, karbon izini kamaytiruvchi va ekologik xavfsiz loyihalarni amalga oshirayotgan investorlar uchun foizsiz kreditlar, subsidiyalar va xalqaro fondlar bilan hamkorlik dasturlari ishga tushirilishi lozim.

Investorlar bilan barqaror muloqot tizimini yo'lga qo'yish. Mahalliy hokimiyat va markaziy davlat organlari ishtirokida muntazam invest-forumlar, "investorlar uylari" va konsultativ kengashlar tashkil etish orqali uzviy aloqa kanallari yaratilishi zarur.

Ushbu takliflar O'zbekistonning uzoq muddatli iqtisodiy strategiyasiga mos bo'lib, investitsion jozibadorlikni oshirish, hududiy va texnologik o'sishni rag'batlantirish, shuningdek, xalqaro investorlar ishonchini mustahkamlashga qaratilgan.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli farmoni, <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning to'rtinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumidagi nutqi, 10.06.2025. <https://president.uz/oz/lists/view/8203>
3. Otaboev Akhmed Makhsubek o'g'li, Juliana Juliana, Fazliddin Nasriddinov, "Factors affecting investment attractiveness in the global investment landscape", Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot 2024-yil, mart. № 3-son. 704-708 b.
4. Scott O'Reilly, Strategy Development: Fundamental Concepts Explained, February 6, 2025. <https://www.spiderstrategies.com/blog/strategy-development/#:~:text=What%20Is%20Strategy%20Development?,adapt%20to%20changing%20competitive%20landscapes>.
5. I.P. Dovbiy, "Methodological aspects of a multi-level assessment of the investment attractiveness of companies in the metallurgical complex", Bulletin of Chelyabinsk State University, no. 14 (396), pp. 33–40, 2016.
6. Yu.V. Sevryugin, "Assessment of the investment attractiveness of an industrial enterprise," PhD thesis abstract. Retrieved from: [http://elibrary.udsu.ru/xmlui/bitstream/handle/123456789/1836/04\\_17\\_013.pdf?sequence=1](http://elibrary.udsu.ru/xmlui/bitstream/handle/123456789/1836/04_17_013.pdf?sequence=1)
7. V.A. Teplitsky, A.V. Koryakina, "Investment attractiveness in the context of the fishing industry", Socio-economic phenomena and processes, vol. 12, no. 4, pp. 56–60, 2017.
8. O.V. Titova, A.I. Guseynova, "Comprehensive assessment of the investment attractiveness of the construction company", Collection: Youth and the XXI Century – 2018, in 5 volumes, pp. 247–251, 2018 [Materials of the VIII International Youth Scientific Conference].
9. E.A. Fedorova, I.V. Esipenko, "Development of methods for assessing the investment attractiveness of the company on the example of the electricity sector", Economic analysis: theory and practice, no. 7, pp. 7–13, 2015.
10. Менеджмент ва бизнес асослари (дарслик). С.С.Фуломовнинг умумий тахрири остида. – Т.: Меҳнат.1997-245 б.

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. № 7**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)